QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING URBOEKOLOGIK VAZIYATI

Qalmuratov R.F.,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. *Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida urbanizatsiyaning rivojlanishi natijasida urboekologik vaziyatning o‘zgarishi va shaharlarning aholi soni, maydoni va unga bog‘liq markazdan ta’sir etish jarayonlari keng ta’riflangan.*

Kalit so‘zlar: *inson, aholi, tabiyat, shahar, urboekologiya, urbanizatsiya.*

Inson tabiatning ajralmas bir qismidir. Chunki u tabiat qo‘ynida yashaydi, tabiatdan o‘ziga kerakli resurslarni oladi va ma’lum miqdorda tabiatga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, inson va tabiat o‘rtasida o‘zaro munosabatlar shakllanadi. Inson qadimdan tabiiy sharoiti qulay va tabiiy resurslarga boy mintaqalarda yashashga harakat qilib kelgan [1]. Demak, aholi joylashuvining asosiy shakli, shaharlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishida tabiiy sharoitning roli katta. Hozirgi kunga kelib jahon aholisining yarmidan ko‘pi shaharlarda yashamoqda. Shahar aholisining tabiatga ta’siri juda kuchli bo‘lib, bu masalani o‘rganish jarayonida “urboekologiya” tushunchasi paydo bo‘lgan.

Shaharlar katta-kichikligi yoki uning bajaradigan funksiyasiga ko‘ra, turli xil va ko‘p miqdordagi xomashyo resurslariga bo‘lgan talabi bo‘yicha ham bir-biridan keskin farq qiladi. Ulardan eng asosiysi shaharlarning toza ichimlik suvi bilan ta’minlanishi hisoblanadi. Olimlar tomonidan aholisi soni 1 mln kishi bo‘lgan shaharning tabiatdan qancha miqdorda chegaraviy mahsulot olishi va tabiatga qancha miqdorda chiqindilar chiqarishi hisoblab chiqilgan [2]. Bunga ko‘ra taxminan shaharga yiliga 470 mln t yoki deyarli 0,5 km^2 suv talab etiladi va 50 mln t havo ishlatiladi. Bunday kattalikdagi shaharlardan har yili kanalizatsiya orqali tabiatga 350 mln t har xil iflos suv chiqaradi. Agar Nukus shahri aholisi 349,4 ming kishi (01.01.2026) ekanligini hisobga olsak, olimlar tomonidan hisoblangan me’yorning chorak qismi bu shaharga to‘g‘ri keladi. Lekin shaharlarning bajaradigan funksiyasi va xo‘jalik ixtisoslashuviga qarab bu me’yor ko‘p yoki kam bo‘lishi ham mumkin.

Suvning asosiy qismi tabiiy oqim, ya’ni daryo suvi bo‘lib, u hozirgi kunda turli kimyoviy chiqindilar bilan ifloslanishi kuchaymoqda. Shaharlarda eng ko‘p yoqilg‘i, ayniqsa, birinchi navbatda, sanoat ishlab chiqarish jarayonida kislorod, oksidlanuvchi vodorod va uglerodlarni ishlatadi.

1-jadval

Shaharlarning aholi soni, maydoni va unga bog‘liq markazdan ta’sir etish jarayoni

Shahar aholisi soni (ming kishi)	Shaharning o‘rtacha maydoni, km^2	O‘rtacha ta’sir etuvchi maydon, km^2	Markazdan ta’sir etish chegarasi, km	
			Eng yuqori	Eng kam
1000 dan katta	179	3390	59	13
999 – 500	74	2370	44	12
499-100	34	1550	33	10
99-50	22	385	26	2

Aytish kerakki, shaharlarda aholi sonining ko‘payib borishi bilan ularda ishlab chiqarish ham rivojlanib boradi. Shu sababli, shaharlarda aholi soni qancha ko‘p bo‘lsa, ularning ta’sir doirasi ham shuncha katta bo‘ladi. Keltirilgan jadvalda shuni ko‘rish mumkinki, kattaligi jihatidan Nukus shahri bilan teng bo‘lgan shaharlar maydoni 34 km kv, o‘rtacha ta’sir etuvchi zona maydoni 1550 km kv ni, ta’sir etuvchi masofa esa markazdan 10-33 km gacha yetadi. Bu ko‘rsatkich aholi soni 1 mln kishilik shaharlarda ular egallagan maydon 179 km kv, ta’sir zonasi maydoni 3390 km kv, ta’sir chegarasi esa 13-59 km gacha yetadi.

Lekin, yuqorida aytib o‘tilganidek, shaharlar ixtisoslashuvi va aholi soniga bog‘liq holda bu chiqindilar miqdori va turlari o‘zgarib boradi. Bu esa o‘z navbatida, shaharlarda o‘ziga xos mikroiqlimning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Shaharlarning kelajakdagi rivojlanishini o‘rganishda ularning katta-kichikligiga emas, balki funksional tiplariga e’tibor berish kerak. Qoraqalpog‘iston poytaxti - Nukus shahri ko‘p funksiyali shaharlar qatoriga kiradi [3]. Ayni paytda u respublikaning asosiy sanoat, transport va moddiy markazi hisoblanadi. Shu bilan birga, mustaqillik yillarida aholiga xizmat ko‘rsatish, bozor infratuzilmasi va boshqa sohalari juda tez rivojlanayotgan shahardir. Kelgusida ham ushbu tarmoqlarni rivojlantirishning katta imkoniyatlari mavjud.

Nukus shahri migratsiya va aholi sonining ko‘payishi, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning rivojlanishi bilan shahar hududi ham janub va janubi-g‘arbga, ya’ni Amudaryo tomonga kengayib boradi. Agar aholi o‘sishining hozirgi sur’ati saqlab qolinsa 2015-yilda shahar aholisi 300 ming kishi bo‘lgan bo‘lsa, 2030-yilda 372 ming kishiga yetishi prognoz qilinmoqda. Shaharning kengayishi munosabati bilan shaharga yaqin bir necha aholi manzilgohlari, shu bilan birga, faqat Amudaryo orqali ajralib turgan Taxiatosh, Xo‘jayli shaharlari va Vodnik shaharchasi bilan qo‘shilib aholi soni salkam yarim millionlik katta aglomeratsiya shakllanib kelmoqda [4].

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kelgusida ham shaharlar belgilab beradi. Shu sababli shaharlarning urboekologik holati bilan bog‘liq muammolarni ijobiy hal etish asosida ularning kelajakdagi rivojlanishini aniqlash katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bu esa, o‘z navbatida, shaharlarni o‘rganish doimo muhim o‘rin tutishidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K.Allanazarov, G.Khodjaeva, K.Shields. IMPLICATIONS OF THE LINKS BETWEEN DEMOGRAPHY AND ECOLOGY FOR THE ECONOMY OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN. - Karakalpak Scientific Journal, 2021. p.30-40.
2. Г.А.Ходжаева, Е.К.Умаров, К.Ж.Алланазаров. Демографические факторы территориальной организации производства в районах Южного Приаралья. Актуальные проблемы современной науки, 2003. 151-153 стр.
3. Ходжаева Г., Нуранов М. Город в пустыне. Республика илмий амалий анжумани материаллари, Бухара 1-май, 2010. 91-94 б.
4. Ходжаева, Г. А., Д. Д. Даулетбаева, and М. Байрамова. “Проблемы формирования городских поселений Республики Каракалпакстан”. “*ХАБАРШЫСЫ”*1 (2020): 35.